«TASDIQLAYMAN»
"Biznesni rivojlantirish banki" ATB
Boshqaruv raisining o'rinbosari
v.b.:
O.Voxidov

«10» noyabr 2026 y.
№ 768

TEXNIK TOPSHIRIQ

«Inson resurslarini strategik boshqarish bo'yicha CIPD (Chartered Institute of Personnel and Development) diplomi (Level 7)» dasturi bo'yicha o'qitish xizmatlarini ko'rsatish uchun

№	Asosiy ma'lumotlar va talablar nomi	Ma'lumotlar va talablar mazmuni
1.	Buyurtmachi	«Biznesni rivojlantirish banki» ATB
2.	Ko'rsatiladigan xizmat nomi	«Inson resurslarini strategik boshqarish bo'yicha CIPD**(Chartered Institute of Personnel and Development)** diplomi (CIPD Level 7)» dasturi bo'yicha o'qitish
3.	Maqsad va maqsadli auditoriya	Maqsad: ishtirokchilarning inson resurslarini strategik boshqarish sohasidagi ko'nikma va bilimlarini rivojlantirish, xalqaro CIPD malakasining 7-darajasini olish. Maqsadli auditoriya: inson resurslarini boshqarish sohasida rahbarlik lavozimlarida ishlayotgan tajribali mutaxassislar, shuningdek, tashkilotda inson resurslarini boshqarish amaliyotini shakllantiruvchi mutaxassislar.
4.	Ijrochiga qo'yiladigan talablar	• CIPD tomonidan rasman tasdiqlangan o'quv markazi (CIPD Approved Centre)ning amaldagi maqomi mavjudligi, bu Level 7 dasturini o'tkazish va tinglovchilarni CIPDda ro'yxatdan o'tkazish huquqini tasdiqlaydi; • HR mutaxassislari va rahbarlar uchun o'quv dasturlarini tashkil etish va o'tkazish tajribasi, shu jumladan Markaziy Osiyo mintaqasida.
5.	Dastur tuzilmasi va mazmuniga qo'yiladigan talablar	**Ishtirokchilar soni: 2 nafar.** **Dasturga qo'yiladigan umumiy talablar:** • dastur CIPD Level 7 rasmiy dasturiga – «Inson resurslarini strategik boshqarish bo'yicha diplom» dasturiga – to'liq mos kelishi kerak; modullarni qisqartirish, almashtirish yoki Ijrochining o'z ishlanmalari bilan o'rnini bosish ruxsat etilmaydi; • o'qituvchilar bilan mashg'ulotlarning umumiy hajmi – quyida ko'rsatilgan mavzuviy bloklar bo'yicha taqsimlangan holda kamida 76 soat; bundan tashqari, dasturda tinglovchilarning mustaqil ishi va 12 oy davomida yozma topshiriqlarni tayyorlash nazarda tutiladi; • mazmun amaliyotga yo'naltirilgan bo'lishi kerak: real keyslarni tahlil qilish, guruhli ish, turli soha va mamlakatlardan misollar, Buyurtmachi tashkiloti faoliyatida qo'llash mumkin bo'lgan materiallar; • bayon etish darajasi – strategik: tinglovchilar nafaqat HR

		vositalarini qo‘llashni, balki qarorlarni asoslashni, ularning biznesga ta’sirini baholashni va rahbariyatga tavsiyalar taklif etishni o‘rganishlari kerak; • mavzuviy bloklar ketma-ketligini o‘zgartirishga faqat Buyurtmachi bilan kelishilgan holda va bu o‘qitish natijalariga erishishga ta’sir qilmasligi sharti bilan yo‘l qo‘yiladi. **Dastur quyidagi asosiy mavzuviy yo‘nalishlarni qamrab olishi kerak (batafsil mazmun rasmiy CIPD Level 7 dasturi bilan belgilanadi va Ijrochi tomonidan yoritib beriladi):** 1. biznes muhitidagi o‘zgarishlar va ularning ish hamda inson resurslarini boshqarishga ta’siri; 2. inson resurslarini boshqarish strategiyasi va mehnat unumdorligini oshirish; 3. shaxsiy samaradorlik, kasbiy etika va biznes zukkoligi; 4. inson resurslarini boshqarish amaliyotida biznes tadqiqotlari; 5. mehnat munosabatlari; 6. resurslarni rejalashtirish va iste’dodlarni boshqarish; 7. mukofotlashni boshqarish; 8. xodimlarni o‘qitish va rivojlantirishda texnologiyalar. **Buyurtmachi va tinglovchilarni dastur haqida xabardor qilish:** • o‘qitish boshlanishidan oldin Ijrochi Buyurtmachi vakillari va tinglovchilar uchun CIPD va Level 7 dasturi haqida kirish taqdimotini o‘tkazadi, unda quyidagilar tushuntiriladi: malaka tuzilmasi va bloklar bo‘yicha o‘qitish natijalari, tinglovchilarga qo‘yiladigan talablar, CIPDda ro‘yxatdan o‘tish tartibi, yozma ishlarni baholash formati, muddatlari va tartibi, qayta topshirish tartibi, diplom olish shartlari, kutilayotgan o‘quv yuklamasi.
6.	O‘qitish formati, tili va muddatlari	• dasturning davomiyligi – 12 oy, 2027-yil davomida; • format – onlayn; seminarlar va boshqa o‘quv tadbirlari; • mashg‘ulotlar o‘tkaziladigan vaqt keyinchalik taraflarning kelishuviga ko‘ra aniqlashtirilishi va o‘zgartirilishi mumkin; • o‘qitish tili – rus tili; o‘quv materiallari rus tilida taqdim etiladi; • yozma topshiriqlar ingliz tilida topshiriladi; • modullarning kalendar jadvali o‘qitish boshlanishidan oldin Buyurtmachi va Ijrochi tomonidan kelishiladi.
7.	Trenerlarga (o‘qituvchilarga) qo‘yiladigan talablar	• Ishtirokchi jamoasida kamida 1 nafar CIPD Level 7 sertifikatiga ega mutaxassis mavjud bo‘lishi lozim. Ishtirokchi sertifikat nusxasi va my.mehnat.uz saytidan QR-kodli ma’lumotnoma yoki mehnat munosabatlarini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar nusxalari taqdim etilishi lozim; • o‘qituvchilar tarkibi jami dasturning barcha mavzuviy bloklarini (5-bo‘lim) qamrab olishi kerak. Har bir trenerga faqat o‘qitish huquqi tasdiqlangan (shaxsiy malakasi CIPD Level 7 dan past bo‘lmagan) va modul profili bo‘yicha amaliy ish tajribasiga ega bo‘lgan modullarni o‘tkazishga ruxsat etiladi. • Trenerni almashtirishga faqat teng yoki undan yuqori malakali mutaxassis bilan, Buyurtmachi bilan oldindan kelishgan holda va yangi nomzod bo‘yicha tasdiqlovchi hujjatlarning to‘liq to‘plami oldindan taqdim etilgan taqdirda yo‘l qo‘yiladi.
8.	Baholash va o‘qitish yakunlari bo‘yicha hujjatlar	• tinglovchilarni baholash dastur davomida bajariladigan yozma tadqiqot topshiriqlari bo‘yicha amalga oshiriladi; • barcha yozma topshiriqlar ingliz tilida topshiriladi; • yozma ishlarni muvaffaqiyatli topshirish yakunlariga ko‘ra tinglovchi inson resurslarini strategik boshqarish bo‘yicha CIPD diplomini (Level 7) oladi;

		tinglovchilarning murojaatlariga ko‘ra Ijrochi o‘qitish va yozma topshiriqlarni tayyorlash jarayonida yuzaga keladigan masalalar bo‘yicha maslahat yordami ko‘rsatadi.
9.	Ijrochi taklif tarkibida taqdim etadigan hujjatlar	CIPD tomonidan tasdiqlangan o‘quv markazi (CIPD Approved Centre) maqomini tasdiqlovchi hujjat; 7-bo‘limga muvofiq tajriba va malakani tasdiqlovchi trenerlar to‘g‘risidagi
10.	To‘lov shartlari	shartnoma taraflar tomonidan imzolangan kundan boshlab 5 ish kuni ichida 100% oldindan to‘lov.
11.	Aloqa uchun telefonlar	+998781509339 (812) Abdullayeva Matluba

kelishuvchilar: A.Yakhyayev

https://hujjat.brb.uz/?pin=wP36lE92&id=b57501dc-a964-4634-b699-db9eb8fd05a2